

**O‘QUVCHILARDA KREATIV YONDASHUV VOSITASIDA ESTETIK
DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

P. f. d. (DSc), Proff. Bux. MTI. Buxoro, O‘zbekiston

samieva-1978@mail.ru, +99890510-31-03

Aslanova Nargiza Xakimovna

BuxDU tayanch doktoranti

nargizaaslanova52@gmail.com +99891447-70-09

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi taraqqiyot bosqichida samarali amalga oshirilayotgan O‘zbekiston ta’lim tizimi va innovation texnologiyani joriy etishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Me’yoriy hujjatlar asosida ta’limda innovatsiyalarni ishlab chiqish, o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos barkamol tarbiyalash, ularni kreativ, mustaqil va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida tahlil qilish dolzarbligi ochib berilgan. San’at va madaniyatni o‘quv jarayoniga singdirish orqali estetik dunyoqarashni rivojlantirish, badiiy tafakkurni shakllantirish yo‘llari asoslangan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion texnologiyalar, kreativ fikrlash, milliy qadriyatlar, estetik

Mamlakatimiz ta’lim tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi ijtimoiy jamiyatning turli jabhalaridagi o‘zgarishlar, shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalar butun tizimni sezilarli darajada yangilash bilan tavsiflanadi. Natijada, zamonaviy ta’lim doirasida turli hayotiy vaziyatlarda o‘z harakat uslubiyatini ongli ravishda qurish, o‘z hayotining "muallifi" bo‘lishga qodir ijodkor shaxsni rivojlantirishga e’tibor qaratish muhim va dolzarb vazifamizdir. 20-asr oxirida vujudga kelgan globallashuv jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, fan-texnika taraqqiyotining jadal o‘sishi, axborotlashtirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va boshqalar ta’lim tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan ko‘plab ijtimoiy institutlarni modernizatsiya va isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi.

O‘zbekiston respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2022-yil 11-sentyabrda joriy qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ta’limda innovatsion imkoniyatlar, insonparvarlik asosida rivojlanayotgan tizimga o‘tish uchun huquqiy shartlarni yaratdi. Xususan, ishlab chiqarish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, kreativlik va kompetensiyalarni shakllantirishga poydevor bo‘ladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirishning ustuvor shartlaridan biri tartibga solingan ta’lim muhitini tashkil etishdir.

Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanib borishi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar, yangi

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Dunyo ta'lim tizimi mexanizmlari va strategiyalarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish, kreativ fikrlovchi o'quvchi shaxsini tarbiyalash uchun taraqqiyot tendensiyalariga mos ravishda o'quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida pedagogik faoliyatga o'zgartirishlar kiritish faol fikrlovchi shaxsni tayyorlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shu sababli mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmunini:


- + o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, umummadaniy kompetensiyalar, san'at, madaniyatga qiziqtirish asosida axloqiy-estetik va jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

- + o'quvchilarda san'atni sevish, estetik madaniyatni shakllantirish, madaniy meros va milliy qadriyatlarga chuqur hurmat hissini tarbiyalash;

- + o'quvchilarda mehnatsevarlik, ijodkorlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;

- + o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o'zo'zini rivojlantirish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat.

Agar zamonaviy ta'limda eng muhim aspektlardan biri bo'lgan kreativlik atamasiga izoh bersak, uni ijodga intilish, hayotiy jabhalarda ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga xizmat qiladi. "Kreativlik asoschisi" nomi bilan mashhur Pol Torrens to'rta kreativlik konikasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash

Shuningdek, o'quvchilarda tasviriy savodxonlik, badiiy-ijodiy fantaziyani, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini shakllantirish orqali tasviriy va amaliy san'at asarlarini estetik idrok etish kompetensiyalarini takomillashtirishni ko'zda tutadi. O'zbek xalqi hunarmandchiligining tarixiy ildizlari xalq amaliy san'ati asosida taraqqiy etib juda qadimgi, mumtoz hamda buzrukvor asriy tajribalarga tayangan. Milliy san'atimiz o'zining ser unum hamda serjiloligi bilan har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy merosimizdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan jarayonlar, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasiga asoslangan ta'lim tizimi pedagogikaning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. O'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib tarbiyalash, ularda estetik dunyoqarash, ijodkorlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, madaniy merosga hurmat hissini shakllantirish ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida innovatsion pedagogik tuzilmalar o'quv jarayoniga, tartibga solinadigan ta'lim muhitini yaratishda hamda kreativ yondashuv vositasida ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablari san'at va madaniyat orqali o'quvchilarning badiiy-estetik savodxonligini rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash va qadrlash, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodni yanada barkamol, ijodkor shaxsni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students' Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In International Workshop Hybrid methods of modeling
2. Самиева, Ш. Х., & Усмонова, Г. Х. (2022). Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(4), 35-38.
3. Маджидова, М. Х., & Самиева, Ш. Х. (2020). Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. *Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск)*, (1), 803-805.
4. Самиева, Ш. Х. (2023). ВАЖНЫЕ ОБЛАСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Ученый XXI века*, (1 (92)), 37-39.
5. Л.Ф.Лосев. ИСТОРИЯ АНТИЧНОЙ ЭСТЕТИКИ. Москва «АСТ» 2000. стр.18
6. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006. 6-bet
7. Samieva, Sh. X. (2018). *Kasb-hunar kollejarida dizayn yo'nalishi o'quvchilarida estetik dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi* (PhD dissertatsiyasi)

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

8. Щербо, А. Б. Формирование у младших школьников способностей к художественно-эстетической деятельности. дис...канд. м,1983. 20 с

9. Khodjayeva N. S., Mamurova D. I., Nafisa A. IMPORTANCE IN PEDAGOGICAL TECHNIQUES AND EDUCATIONAL ACTIVITY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. CONGRESS. – С. 5-5. 2.

10. Olimov, Shirinboy Sharofovich. "THE INNOVATION PROCESS IS A PRIORITY IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCES." (2021).

11. Islamovna M. D. The value of using the autocad program in the works of machine-building drawings for building fastening parts //Proceeding of The ICECRS. – 2019. – Т. 3.

